



UDK:159.954:008

SHAXSIY IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

E.M. Shamsiddinova*Toshkent Texnologiya, Menejment va
Kommunikatsiya (TMC) Instituti*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Psixologik, pedagogik va sotsiomadaniy nuqtai nazarlarga tayangan holda, tadqiqot individual ijodiy o'sishga hissa qo'shuvchi asosiy omillarni aniqlaydi. Aralash uslubdagi yondashuv asosida talabalar va o'qituvchilar o'rtaida so'rovnomalar, shuningdek, eksperimental topshiriqlar orqali ijodkorlikni rivojlantirish strategiyalarining samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari motivatsion muhit, fanlararo ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan fikrmulohazalarning ijodiy ifodani rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Ushbu xulosalar rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim islohotlari va innovatsiyalarga asoslangan tashabbuslarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: shaxsiy ijodkorlik, ijodiy fikrlash, innovatsiya, ta'lim, shaxs taraqqiyoti.

ABSTRACT

This article explores the theoretical foundations and practical mechanisms for developing personal creativity. Drawing on psychological, pedagogical, and sociocultural perspectives, the research identifies key factors contributing to individual creative growth. A mixed-methods approach, including a survey of students and educators and experimental tasks, was used to assess the effectiveness of creativity-enhancing strategies. The findings underscore the importance of motivational environments, interdisciplinary learning, and personalized feedback in fostering creative expression. These insights may inform educational reforms and innovation-driven initiatives in developing countries.

Keywords: personal creativity, creative thinking, innovation, education, personality development

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ijodkorlik har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning ajralmas omiliga aylanmoqda. Shaxsiy

ijodkorlik insonning innovatsion g'oyalarni ilgari surishi, muammolarga noodatiy yechim topishi va shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishda ilg'orlikni ta'minlaydi. Shu sababli, ijodiy fikrlashni shakllantirish nafaqat san'at va madaniyat sohalarida, balki texnologiya, ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot kabi ko'plab jabhalarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda psixologiya, pedagogika, neyrofan va boshqaruv sohalarida olib borilgan tadqiqotlar ijodkorlikning tug'ma emas, balki ma'lum sharoit va strategiyalar orqali rivojlantirilishi mumkin bo'lgan sifat ekanligini isbotladi. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida, yoshlarda kreativ salohiyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'zga tashlanmoqda. Shu munosabat bilan, shaxsiy ijodkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar, metodik vositalar va muhit yaratish strategiyalari dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylandi.

Mazkur maqola shaxsiy ijodkorlik tushunchasining nazariy asoslarini yoritish, uni shakllantirishda ta'lim muassasalarining o'rni va pedagogik vositalarning samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada turli yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida ijodiy rivojlanishni ta'minlovchi omillar aniqlanadi. Shu asosda ta'lim tizimiga integratsiyalash mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

METODOLOGIYA.

Shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirishga oid tadqiqotlarda bir necha metodologik yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri ijodiy faoliyatni har xil jihatdan yoritadi. Ushbu tadqiqotda ijodkorlikning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun aralash tadqiqot yondashuvi (mixed-methods approach) tanlandi. Bu yondashuv kvantitativ va kvalitativ metodlarni uyg'unlashtirgan holda, masalaning har tomonlama o'rganilishiga imkon yaratadi.

Kvantitativ bosqichda, ijodiy salohiyatni o'lchash maqsadida Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT) va Creativity Assessment Packet (CAP) testlari qo'llanildi. Bu testlar ijodiy fikrlashning asosiy komponentlari – original fikr bildirish, moslashuvchanlik, tafakkur ravonligi va tafsilotga e'tibor qaratish darajasini baholash imkonini berdi. Testlar 150 nafar talaba (har biri 18–23 yosh oralig'ida) o'rtasida o'tkazildi. Talabalar Toshkent, Samarqand va Farg'ona hududlaridagi uchta oliy ta'lim muassasasidan tanlab olindi. Tanlov ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va jinsiy jihatdan turlicha bo'lgan guruhlardan iborat bo'lishiga e'tibor qaratildi.

Kvalitativ bosqichda esa 12 nafar tajribali o'qituvchi va psixologlar bilan yarim tuzilgan intervylular o'tkazildi. Intervylular davomida respondentlardan talabalarda ijodkorlikni shakllantirishda qanday metodlardan foydalanilayotgani, qanday

to'siqlarga duch kelinayotgani va qaysi yondashuvlar samaraliroq ekani haqida ma'lumotlar olindi. Shu bilan birga, 50 nafar talabandan loyiha asosida yaratilgan mustaqil ishlar, esse va dizaynlar tahlil qilinib, ularning ijodiy yondashuv darajalari o'rganildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar SPSS 26.0 dasturida statistik jihatdan tahlil qilindi, korrelyatsion tahlil, dispersiya tahlili (ANOVA) va regressiya tahlili yordamida farqlar aniqlashtirildi. Kvalitativ ma'lumotlar esa NVivo dasturi orqali kodlanib, asosiy mavzular bo'yicha tematik tahlil amalga oshirildi. Ushbu kompleks yondashuv bizga ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy omillarni aniq va ilmiy ishonchli tarzda aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shaxsiy ijodkorlikni shakllantirishda ta'lim muhiti, o'qituvchi yondashuvi va talabaning motivatsiyasi muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Kvantitativ tahlillar asosida aniqlanishicha, ijodiy vazifalar, ochiq savollarga asoslangan topshiriqlar, loyiha asosida o'qitish kabi metodlar qo'llanilgan guruhdagi talabalar TTCT testida yuqori ball toplashdi. Ushbu talabalar orasida o'rtacha ijodkorlik darajasi 83% bo'lgan bo'lsa, an'anaviy ta'lim asosida o'qitilgan guruhda bu ko'rsatkich 62% ni tashkil etdi ($p < 0.01$ darajasida statistik ahamiyatli farq mavjud).

Bundan tashqari, talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ijodkorlikni rag'batlantiruvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar tilga olindi: erkin fikrlash imkoniyati (79%), guruhiy va loyiha asosidagi ishlarda ishtirok (67%), o'qituvchidan individual fikrga nisbatan rag'bat va e'tirof (63%) hamda noan'anaviy topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlar (59%).

Respondentlarning 72 foizi o'zlarining ijodiy fikrlash darajasi so'nggi yillarda o'qitish metodikasidagi o'zgarishlar tufayli oshganini bildirgan. Shu bilan birga, intervyu asosida aniqlangan eng katta to'siqlar – vaqt chekllovleri, baholashdagi sub'ektivlik va ijodiy g'oyalarga nisbatan salbiy munosabat kabi omillar bo'ldi. Ayniqsa, baholash mezonlarining aniq bo'lmasligi talabalarni ijodiy yondashuvdan ko'ra, to'g'ri javob'ni izlashga undagani ta'kidlandi.

Kvalitativ tahlil jarayonida esa talabalar tomonidan tayyorlangan esse va loyihalarda original fikr bildirish, o'ziga xos dizayn va mustaqil qaror qabul qilish kabi elementlar yaqqol ko'zga tashlandi. NVivo dasturida tahlil qilingan matnlardan aniqlanishicha, ijodiy yondashuvda faol bo'lgan talabalar o'z fikrini erkin ifoda qilish, o'ziga ishonch hosil qilish va o'zini o'zgacha tarzda namoyon etishda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

MUNOZARA

Ushbu tadqiqot shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirishda o‘qitish metodikasi, psixologik muhit va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Natijalar shuni anglatadiki, ijodkorlik tug‘ma qobiliyat bo‘lishi mumkin, biroq uni rivojlantirish va mustahkamlash jarayoni o‘rganiladigan va boshqariladigan faoliyat sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida yaratib berilgan erkinlik, qo‘llab-quvvatlovchi muhit va innovatsion metodlar bu jarayonni sezilarli darajada jadallashtiradi.

Ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishda talabalar orasida o‘z fikrini ochiq ayta olish, xatodan qo‘rqmaslik va mustaqil qaror qabul qila olish darajasi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida e’tirof etildi. Bu esa psixologik xavfsizlik, ya’ni talabada o‘z g‘oyasini baholovchisiz bildirishi mumkin bo‘lgan muhit mavjudligiga bog‘liq. Intervyular davomida o‘qituvchilar aynan shu omil – ya’ni talabani qoralamasdan, u bilan teng fikr almashish asosidagi yondashuv ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlashdi.

Tadqiqot natijalari ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlikda. Masalan, Guilford va Torrance ijodkorlikni tafakkur darajasi bilan emas, balki shart-sharoitga moslashish va yangilik kiritish qobiliyati sifatida ta’riflaydi. Mazkur maqolada erishilgan xulosalar ham shuni tasdiqlaydiki, ijodiy fikrlash – bu shunchaki bilim yoki iste’dod emas, balki o‘rganiladigan, rivojlantiriladigan va takomillashadigan sifatdir. Ayniqsa, talabalar o‘zlarining ijodiy fikrini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lganlarida, bu ko‘nikmalar tezroq shakllanadi.

Shuningdek, ta’lim tizimidagi baholash mezonlariga ijodiy fikrni qo‘llab-quvvatlash tamoyilini integratsiya qilish zarurati vujudga kelmoqda. Hozirgi an’naviy baholash tizimi ko‘proq standart yechimlarni qadrlagani bois, o‘zgacha qarash va yangilik yaratishga urinishlar baholanmay qolishi mumkin. Bu esa ijodiy salohiyatning bo‘g‘ilishiga olib keladi. Shu boisdan ham o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, talabaning kreativ ishlari uchun ochiq baholash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish – bu murakkab, ammo boshqariladigan jarayon bo‘lib, u faqat individual harakatlar bilan emas, balki muhit, pedagogik yondashuv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi orqali shakllanadi. Ijodkorlikning rivojlanishi insonning fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z g‘oyasini erkin ifodalash va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida, nafaqat shaxsiy taraqqiyotga, balki jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Maqolada bayon etilgan nazariy yondashuvlar va amaliy natijalar asosida, ta’lim tizimida shaxsiy ijodkorlikni qo’llab-quvvatlash uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ta’lim metodikasini yangilash.
2. Psixologik xavfsizlik muhitini yaratish.
3. Ijodiy yondashuvni baholash tizimiga integratsiya qilish.
4. O‘qituvchilar malakasini oshirish.
5. Raqamli vositalardan samarali foydalanish.

Shunday qilib, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy va metodik yondashuvlar zamонавиу та’лим тизимининг ажралмас қисмига айланishi зарур. Bu nafaqat ijodkor avlodni shakllantirish, balki raqobatbardosh, innovatsion fikrga ega bo‘lgan yangi ijtimoiy qatlamni vujudga keltirishga xizmat qiladi. Mazkur maqola natijalari O‘zbekiston ta’lim tizimida kreativ fikrlashni kuchaytirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. Rasulova, D. (2022). Talabalarning ijodiy kompetentini rivojlantirishda badiiy ijodning ahamiyati. *ResearchGate*.
2. Abdukarimov, B. (2023). Development of Pedagogical Creativity of Lecturers In Training Courses Through Innovative Methodological Projects: A Case of Uzbekistan. *ResearchGate*.
3. Saidova, N. (2022). Critical thinking and creativity in teaching the Russian language in schools. *International Journal of Pedagogy*.
4. Huang, X. (2021). Striving for better teaching and student creativity development: Linking informal workplace learning and teaching for creativity. *Thinking Skills and Creativity*, 41.
5. Olson, J. A., Nahas, J., Chmoulevitch, D., Cropper, S. J., & Webb, M. E. (2021). Naming unrelated words predicts creativity. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 118(25).
6. Kaipbergenova, D. (2023). BUGUNGI KUNDAGI MAMLAKATIMIZDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI. World scientific research journal, 15(2), 3-7.
7. Каипбергенова, Д., & Жуманиёзова, Н. С. (2023). БУГУНГИ КУН ТАЛАБА ЁШЛАРИДА АХЛОҚИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 652-668.